

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH

M.M. Abdurahmanova

TDIU Bank ishi kafedrası professor i.f.n.,

Annotatsiya

Mazkur maqolada banklarning yashil iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini marketing konsepsiyalaridan foydalanib baholashning yondashuvlari o'rganilgan. Unda banklarning ekologik loyihalar va yashil texnologiyalarni moliyalashtirish orqali atrof-muhitni asrash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Maqolada banklar tomonidan yashil kreditlar va obligatsiyalar yordamida ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish, barqarorlik hisobotlarini tayyorlash, shuningdek, xalqaro moliyaviy hamkorliklar orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, banklar, yashil loyihalar, moliyalashtirish, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion texnologiyalar, yashil texnologiyalar, raqamli moliyalashtirish.

Аннотация

В данной статье рассмотрены подходы к оценке конкурентоспособности банков в зеленой экономике с использованием маркетинговых концепций. В нем подчеркивается важность банков в сохранении окружающей среды, обеспечении социальной стабильности и поддержке экономического развития за счет финансирования экологических проектов и зеленых технологий.

В статье рассматривается финансирование экологических инициатив банками с использованием зеленых кредитов и облигаций, подготовка отчетов об устойчивом развитии, а также содействие устойчивому развитию посредством международного финансового сотрудничества.

Ключевые слова: зеленая экономика, банки, зеленые проекты, финансирование, зеленые кредиты, зеленые облигации, экологическая устойчивость, социальная справедливость, экономическая стабильность, инновационные технологии, зеленые технологии, цифровое финансирование.

Abstract

This article discusses approaches to assessing the competitiveness of banks in the green economy using marketing concepts. It emphasizes the importance of banks in preserving the environment, ensuring social stability, and supporting economic development through the financing of environmental projects and green technologies. The article examines the financing of environmental initiatives by banks through green loans and bonds, the preparation of sustainable development reports, and the promotion of sustainable development through international financial cooperation.

Keywords: green economy, banks, green projects, financing, green loans, green bonds, environmental sustainability, social justice, economic stability, innovative technologies, green technologies, and digital financing.

Hozirgi kunda global darajadagi ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi kuzatilmoqda. Shuning uchun, “yashil iqtisodiyot” tushunchasi nafaqat ekologlarning, balki iqtisodchilar, siyosatchilar, moliyachilar va xususan, tijorat banklarining faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, ifloslanishni kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modeldir. Ushbu model tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot doirasida energiya tejamkorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarda banklar muhim o'rin tutadi. Ular yashil loyihalarni moliyalashtirish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish orqali yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Banklar yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va ekologik investitsiyalar orqali qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik qurilish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalarni moliyalashtiradilar. Bunday moliyaviy faoliyat nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, banklarning barqarorlik bo'yicha hisobotlari ularning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini baholash hamda faoliyatni takomillashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu hisobotlar banklarning barqaror rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlari haqida mijozlar va investorlarni xabardor qiladi.

Shunday qilib, banklar nafaqat moliyaviy vositachilikni amalga oshiradi, balki jamiyat oldidagi ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. Ular yashil texnologiyalarni joriy etish, kichik va o'rta bizneslarni ekologik investitsiyalarga jalb etish hamda bank xizmatlari sifatini oshirish orqali yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Banklararo raqobat haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi bank tizimida raqobatning rolini va ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarida raqobat nafaqat mijozlarni ko'proq jalb qilish, balki resurslar, kreditlar va boshqa moliyaviy mablag'larga bo'lgan kurash sharoitida ham yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari barqarorligini ta'minlash banklarning marketing konsepsiyalaridan foydalanib strategiyalar ishlab chiqishi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda innovatsion yondashuvlarni yanada takomillashtirishini talab qiladi.

Bank tizimida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun “Corporate Green Loan”, “SME Green Loan”, “Green Consumer Loan”, “Green Product”, “Green Product — Online” kabi kredit turlari joriy qilingan. Ularning mijozlar uchun afzallik tomonlari, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan

foydalanish samaradorligi jamoatchilik o'rtasida muntazam targ'ib qilinmoqda. – “Yashil” loyihalar, “yashil” texnologiyalar hamda “yashil” kreditlar bir-biri bilan chambarchas tushuncha, mohiyatan sanoatlashtirishni yo'qotishlarsiz amalga oshirish, “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan.

1-jadval

Bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot¹

Ko'rsatkich nomi	01.09.2024 y.			01.09.2025 y.		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar		Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar
Aktivlarning majburiyatlarga nisbati	117%	116%	120%	118%	116%	120%
Aktivlar	731,605	488,480	243,124	863,136	563,200	299,936
Majburiyatlar	625,507	422,876	202,632	734,374	484,124	250,250
Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati	180%	249%	110%	160%	209%	106%
Kreditlar	509,676	354,604	155,072	581,057	394,952	186,105
Depozitlar	283,138	142,217	140,922	363,725	188,868	174,857

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushi mavjud banklarning bank xizmatlari bozoridagi ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligi ko'zga tashlanmoqda.

2025-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirish loyihalari uchun kreditlar va subsidiyalar ajratila boshladi. Dastur aholi va energiya xizmati kompaniyalarini qamrab oladi, shuningdek, uy-joylarni “yashil ta'mirlash” uchun imtiyozli kreditlash shartlarini ko'zda tutadi².

Yashil kreditlar. Banklar yashil texnologiyalar va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus kredit turlarini joriy etadi. Ushbu kreditlar qayta tiklanadigan energiya manbalari, yashil qurilish, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Yashil obligatsiyalar. Banklar yashil obligatsiyalar chiqarish orqali investorlarni ekologik loyihalarga jalb etadi. Ushbu moliyaviy vosita orqali jamlangan mablag'lar toza energiya infratuzilmasini rivojlantirish, suv ta'minoti tizimini yaxshilash va

¹ www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

² <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/02/green-credits/>

ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirishga sarflanadi.

Ekologik investitsiyalar. Banklar ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish hamda ekologik mas'uliyatli amaliyotlarni joriy etish orqali yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu jarayon yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ekologik mas'uliyat. Banklar o'z faoliyati davomida ekologik mas'uliyat tamoyillariga rioya etadi va moliyalashtirilayotgan loyihalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirishga intiladi.

Ijtimoiy adolat. Barqaror moliyalashtirish doirasida banklar ijtimoiy adolatni ta'minlash, barcha jamiyat qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga alohida e'tibor qaratadi.

Uzoq muddatli yondashuv. Barqaror moliyalashtirish tamoyillari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni uyg'un tarzda ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uzoq muddatli natijalarni ko'zlaydi.

Yashil iqtisodiyot doirasida raqobat sharoitida banklar doimiy ravishda o'z xizmatlarini takomillashtirib borishga, mijozlarni jalb qilishga va ularga yanada qulay shart-sharoitlarni taklif qilishga majbur bo'lmoqda. Bu bank tizimi samaradorligini oshirish, aholi va korxonalar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, shuningdek, bozor ishtirokchilarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, banklararo raqobat alohida banklarning va umuman butun bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Raqobat banklarni risklarni boshqarishga yanada mas'uliyat bilan yondashishga, likvidlik va kapitalning yetarli darajasini ta'minlashga majbur qiladi, bu esa tizimli inqirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot sharoitida banklararo raqobat moliyaviy tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning samaradorligi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqobatning kuchayishi bank xizmatlarining sifati, innovatsion yechimlar joriy etilishi hamda mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. Shu bois, mamlakatda banklararo raqobat muhitini yaxshilash va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Bank sohasida raqobatni oshirish bo'yicha kompleks strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish, monopoliyaga qarshi nazoratni kuchaytirish hamda bozorning barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlarni ta'minlash zarur.

Banklararo raqobat va investitsion jozibadorlikni oshirish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlarni zamon talablariga moslashtirish, yangi moliyaviy vositalar va xizmatlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash lozim.

Bank xizmatlari sifati, tezligi va qulayligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ushbu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, kichik biznes va qishloq joylardagi tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish zarur.

Adolatli va sog'lom raqobat muhitini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatining ochiqqligini oshirish, hisobot tizimini takomillashtirish va samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va bank sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Xavier Vives. Competition and Stability in Banking: The Role of Regulation and Competition Policy. Published by: Princeton University Press. Pages: 344. 2016
- 2.Yuldasheva S.Sh. O'zbekistonda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning shart-sharoitlari. Iqtisodiyot va ta'lim / 5-son. 2022 y/
3. Jo'rayev Isroil Ibrohimovich. Banklararo raqobat va uning bank tizimi barqarorligini ta'minlashdagi roli . Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1(7):72-79 2024 y.
4. Азларова А. А., Абдурахманова М. М. Анализ современного состояния мобильных технологий в электронном банкинге республики Узбекистан //ББК 65.9 (2Рос-4Кем) Т 33. – С. 199.
5. www.cbu.uz –O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/02/green-credits/>